

MAMLAKATIMIZDA SANOAT KO‘RSATKICHLARI O‘SISH DINAMIKASI TAHLILI

Olchinboyev Otabek Abdusamad o‘g‘li

Andijon Mashinasozlik intituti

“Iqtisodiyot” kafedراسi assistenti

E-mail: olchinboyev96@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimizning sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining o‘shish sur‘atlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, ishlab chiqarish, iqtisodiy o‘shish, erkin iqtisodiy hududlar, maxsus sanoat zonalari, sanoat tarmoqlari, texnopark.

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы темпы роста показателей промышленного производства нашей страны.

Ключевые слова: промышленность, производство, экономический рост, свободные экономические зоны, специальные индустриальные зоны, промышленные отрасли, технопарк.

ABSTRACT

The growth rate of industrial production indicators of our country is analyzed in the article.

Keywords: industry, production, economic growth, free economic zones, special industrial zones, industrial sectors, technological park.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda sanoat ishlab chiqarish tarmog‘ini yanada rivojlantirish texnik texnologik yangilash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan 2017 yildan to bugungi 2022 yilga qadar 150 dan ziyod sanoat tarmog‘iga oid qonun xujjatlari ishlab chiqildi.

Respublikamiz sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlardan yana biri “Erkin iqtisodiy hududlar” va ”Maxsus sanoat zonalari” sonining oshirilishi bo‘lmoqda. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda 9 ta texnopark shaklidagi kichik sanoat zonalari, 14 ta Erkin iqtisodiy zonalar, ulardan: 7 tasi Farmasevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan, 7 tasi esa yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan, 70 ta Kichik sanoat zonalar faoliyat olib bormoqda.

So‘nggi 3 yillik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2019-yilda sanoat mahsulotlari 32 mlrd. 254 mln. dollar, 2020-yilda 36 mlrd. 874 mln. dollar va 2021-yilda 41 mlrd. 840 mln. dollarni tashkil etdi. 2020-yildagi Pandemiya ta’siri bo‘lishiga qaramay ishlab chiqarish hajmi o‘shishga erishdi. 2021-yilda 2019-yilga nisbatan 30 foiz o‘shishga erishildi. Bu o‘shish ko‘rsatkichlari sanoat tarmoqlari bo‘yicha quyidagicha: Ichimliklar ishlab chiqarish 45 %, To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 60 %, Kiyim ishlab chiqarish 36 %, Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish 37 %, Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 36 %, Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish 84 %, Rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish 45 %, Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 38.5 %, Metallurgiya sanoati 55 %, Mashina va uskunalardan tashqari tayyormetal buyumlar ishlab chiqarish 80 %, Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish 2,85 barobar, Elektr uskunalar ishlab chiqarish 39 % darajasida yuqori o‘shishga erishildi. Bevosita kamayish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan sanoat tarmoqlari ham mavjud, xususan, Tog‘-kon va ochiq konlarda ishlash 2019-yilga nisbatan 2021-yilda 92,6 %ni tashkil etdi, Boshqa toifaga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 91,3 %ni tashkil etdi, Avtotransport

vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 89,1 %ni tashkiletib, pasayish holati kuzatildi.

Yuqorida sanab o‘tilmagan boshqa sanoat tarmoqlarida ham 2021-yilda o‘shishga erishilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Stat.uz/Iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari;
2. Stat.uz/Ishlab chiqarish sanoatining tarkibi;
3. Stat.uz/Erkin iqtisodiy hududlari.